



AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TASNIFI VA SABABLARI

Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o'g'li

Karimov Abdulaziz Abdulhamid o'g'li

Mirzanosirov Sardor Botirjon o'g'li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirga zamon ayollarining jinoyatchiligi, ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar, ularning sabablari va oqibatlari, ayollar xulq-atvoridagi agresivlik, ularning ruhiy holatida jinoyat sodir etish holatlari, shuningdek, erkaklar va ayollar o'rtasida jinoyatchilik farqli tomonlari hamda ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning turlari va jazo tizimi, ayollar jinoyatchiliginini oldini olish va jinoyatchi ayol shaxsini o'rganishga qaratilgan fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jinoyatchilik, ayollar, gender, jazo tizimi, kriminologik tasniflash, jinoyat sababi, jinoyat oqibati, qonun, jinsiy jinoyatlar, fohisha, fohishaxona, qo'shmachilik,

Tahlil: Ayollar jinoyatchiligi umumiy jinoyatchilikning tuzlishida nisbatan o'zgarmas kattalikka ega bo'lgan holda, ijtimoiy shart-sharoitlarga qarab o'zgarib boradigan, shu bilan bir qatorda umuman jinoyatchilikda ya'ni erkaklar jinoyatchiligidagi uchramaydigan o'zgarishlarni takrorlamaydigan hodisadir. Tadqiqotlar va turli statistikalar shuni ko'rsatadiki ayollar jinoyatchiligi erkaklar jinoyatchiligiga nisbatan kam hisoblanadi. Ammo poraxo'rlik, rastrata, o'zlashtirish, mansab vazifasini suistemol qilish kabi jinoyatlarda ayollar ulushi yarmni tashkil etadi. Odam o'ldirish, badanga shikast yetkazish kabi hayot va sog'lik uchun xavfli jinoyatlar sodir etilishi negizida oilaviy hamda maishiy nizolar turadi.

Jinoyatchilik eng avvalo ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun, uning miqdor va sifat ko'rsatkichlari, dinamikasi va tuzilishidagi o'zgarishlarining tub sabablari jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy -iqtisodiy, tarixiy, geografik, siyosiy va demokrafik jarayonlar bilan chambarchas bog'liq.

Ayollar jinoyatchiligi umuman jinoyatchilik tuzlishida o'sib bormoqda. Respublikamizda 90-yillarning boshlarida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar jami jinoyatlarning 10 foiz ga teng bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 16 foizdan ko'proqni tashkil etmoqda.

Ayollar jinoyatchiligining kriminologik tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar jinoyatchiligi o'zgarmas emas, balki hayotning turli sohalaridagi o'zgarishlar, albatta, uning tuzilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayollar jinoyatchiligi tuzilishida o'g'irlilik, tovlamachili, firibgarlik, giyohvandlik vositalarining g'ayriqonuniy muomalasi, odam savdosi, savdo qoidalarini buzish,



fohishaxonalar saqlash, qasddan badanga shikast yetkazish, tanosil kasalliklarini yuqtirish ko'pchilikni tashkil qiladi. Avvalgi yillarda qasddan, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar salmog'i kam bo'lga bo'lsa hozirda bundan jinoyatlar oshib bormoqda. Ayollar o'rtasida jinoyatchilik tahlillari shuni ko'rsatadiki, shahar va qishoqlarda yashovchi ayollarning jinoyat sodir etish holatlari o'rganilganda shaharda yashovchi ayollar o'g'irlik, talonchilik, tovlamachilik kabi mulkiy tusdagi jinoyatlarni ko'proq sodir etishi ko'ringan. Qishloqlarda yashovchi ayollar esa ta'qiqlangan ekinlarni ekish kabi jinoyatlar salmog'i yuqori

Ayollar jinoyatchiligining omillari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, demografik omillar; urbanizatsiya, migratsiya, jins, yosh hamda hudud. Ayollar jinoaytchiligidagi iqtisodiy omillar ham ya'ni bandlike, mehnatga haq to'lash kabi holatlar ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shuningdek, siyosiy va ijtimoiyruhiy omillar ham ayollar jinoyatchiligidagi alohida ahamiyatga ega omil bo'lib, milliy mafkurasi, uning ruhiyati va tarbiyasi, axborot olamidagi bilimi va pozitsiyasi hamda dunyoqrashi.

Yosh ayollar, qizlar jumladan voyaga yetmagan qizlar tez boyib ketish orzusida bo'ladi. Bu orzu ham o'z navbatida jinoiy harakatga yetaklaydigan omil bo'lib xizmat qilish holatlari ham uchrab turadi. G'ayriqonuniy harakatlar natijasida o'g'irlik, talonchilik va firibgarlik kabi jinoyatlarga qo'l urishi natijasida ayollar jinoyatchiligi yuz bermoqda.

Ayollar jinoyatchiligi ijtimoiy muhitdagi madaniyat va jinslar tengligi muommolaeri bilan, ayniqsa bog'liqdir. Ya'ni ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlr ommaviy axborot olamida alohida yortiladi, uning jinoyat sodir etishi jinsi bilan urg'ulanadi hamda kamsitilai. Bundan tashqari ayollarning xavfsizligi va uning tajovuzlardan muhofaza qilinishi doirasida ham ayollar tomonidan jinoyatlar sodir etilish holatlari uchramoqda. Ya'ni, xotin-qizlarga jinsiy, ruhiy, jismoniy zo'ravonliklar mavjud va bunday zo'ravonliklar vaqtida ayol o'zini himiya qilish chog'ida mudofaa chegarasida chiqqan holda jinoyat sodir etib qo'yadi va bu o'z navbatida jinoyat deb topiladi. Mana shunday jinoyatlarning ham oldini olish uchun, bevosita ayollarga nisbatan zo'ravonliklarni oldini olish kerak bo'lib xizmat qiladi.

Voyaga yetmagan qizlarda jinsiy aloqaga moyillik erta uyg'onanligi va fixoshachilikning keng tarqalishi OITS, tanosil kasalliklarining ko'payishiga bevosita bog'liq. Foxishachilik bevosita kelgusidagi ko'p jinoyatlarning sodir bo'lismiga zamin yaratib beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Fohishachilik bu jinoyatchilik olami bilan bevosita aloqador hodisa bo'lib:

- Fohishachilar doim qo'shmachilarga tobe bo'ladi.
- Fohishaxonalar ko'pincha giyohvand vositalar savdosi markaziga aylanib qolishi ham ushbu jinoyatning naqadar salbiy oqibatlar keltirib chiqarishini ko'rsatib turibdi.



- Ko'pincha fohishalar jnoiy guruh va uyushgan guruh a'zolariga xizmat ko'rsatish holatlarining uchrayotganligi;

Qizlarning jinsiy buziqligi spirtli ichimliklarga moyilligini keltirib cghiqaradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fohishalarning yarmidan ko'prog'i jinsiy aloq vaqtida spirtli ichimlik ichgan holda bo'ladi. Bu esa fohishalarning ruhiy holatiga ham ta'sir etib, uning boshqa jinoyatlar sodir etishdagi moyilligibni oshiradi.

Xulosa: Yuqorida ayollar jinoyatchiligi turlari haqida, shuningdek jinoyatchilik sabablari va omillari haqida keltirib o'tildi. Ko'rinish turibdiki ayollar jinoyatchiligi ham kun sayin oshib bormoqda, uning xulq-atvori bilan bog'liq jinoyatlar salmog'i yuqoriligi ham bunday turdag'i jinoyatlarni oldini olishda oilaviy tarbiya va ma'naviyatning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ayollar jinoyatchiligidagi yosh qizlarning ulushi ham yuqori bo'lib, ularning ota-onasi va boshqa vakillik organlarining nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy globallashuv jarayonida texnika ham ommalashgani ayollar jinoyatchiligidagi o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xususan, ayollarning telefon va ijtimoiy tarmoqlar orqali jinoyat olamiga kirayootganligi, jumladan, nafs balosida boshqalar ishonchiga kirish orqali pul undirish holatlari uchrayotganlik holatlari ko'paymoqda. Bularning oldini olishda yuqoridagi jinoiy faoliyatni boshlashdagi omillar alohida e'tibor qaratilib oldini olinishi kerak.

Jinoyatchi ayol qiyofasi bu nafaqat uning oilasi va atrofga qolaversa, jamiyatga ham salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Uning jinoyatchi sifatida buzuq mafkurasi kelgusi avlodga uning farzandlari orqali yomon ta'siribni ko'rsatishi mumkin. Bu esa jinoyatchi tarbiyalashdek ish bo'lib ko'rindi. Jinoyatchi ayol qiyofasi bu milliy qadriyatlar va o'zbekona oilaviy an'analarning yomonlashuviga, iboli o'zbek xotini degan so'zlarning mohiyati yo'qolishiga olib keladi. Shunday ekan, umumiyl jinoyatchilik doirasida ayollar jinoyatchiligidagi ham alohida e'tibor qaratlayotganligi ham bejizga emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi;
3. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi;
4. Erkaklar va ayollar uchun teng huquq va erkinliklar to'g'risidagi qonun;
5. Kriminologiya darslik / maxsus qism; Ismoilov;
6. Lex.uz
7. Norma.uz